



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

qiladi. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom ettirilib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion yechimlardan keng foydalanish zarur. O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning istiqboli, avvalo, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish, milliy IT bozorini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish, aholining raqamli bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni raqamli muhitga moslashtirish va ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish kelajakdagi barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://zenodo.org/records/18547659>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari”gi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14741562>
4. <https://scientists.uz/uploads/202301/A-11.pdf>

UDK: 006.032

**XALQARO DARAJADA SIFAT MENEJMENTI VA ISO STANDARTLARINI
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI**

**АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ И СТАНДАРТОВ
ISO НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ**

**ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT TRENDS OF QUALITY MANAGEMENT AND
ISO STANDARDS AT THE INTERNATIONAL LEVEL**

Umarov Ilhomjon Yuldashevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya

Maqolada xalqaro darajada sifat menejmenti va iso standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili yoritilgan. Sifat menejmentini korxonalar tomonidan qo‘llanilayotgan tizimlari xalqaro standartlar orqali takomillashtirish aniqlangan.

Kalit so‘zlar: standart, sifat menejmenti, innovatsiya, standart talablar faoliyat.

В статье представлен анализ тенденций развития управления качеством и стандартов ISO на международном уровне. Установлено, что системы управления качеством, используемые предприятиями, должны совершенствоваться посредством международных стандартов.

Ключевые слова: стандарт, управление качеством, инновации, стандарты и региональные требования.


The article covers the analysis of the development trends of quality management and ISO standards at the international level. It is determined that the quality management systems used by enterprises should be improved through international standards.

Keywords: standard, quality management, standards and regional requirements.

Sifat menejmentini milliy korxonalar tomonidan qo‘llanilayotgan bugungi shakli va tizimlari xalqaro maydondagi biznes vakillarining bu sohaga qo‘shgan hissasidan kelib chiqadi. Ya’ni, oxirgi 50 yil ichida bozor iqtisodiyotiga o‘tgan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan sifat menejmenti AQSH, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya mamlakatlari maktablari tomonidan ishlab

chiqilgan sifat menejmenti tamoyillariga asoslanadi. Qisqacha aytganda, klassik sifat tizimini barpo etishda AQSH korporatsiyalari sifatga erishish uchun katta mablag‘ va xarajatlar sarflab, ilmiy yondashuvlarni qo‘llagan. Yevropa mamlakatlari esa sifatga standartlar va hududiy talablar orqali erishgan. Bunga ISO standartlarini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Yaponiya yuqori sifat boshqaruvini xodimlarning korxonaga bo‘lgan sadoqati, o‘z ustida ko‘p ishlashi va innovatsiyaga qiziqishi hisobiga tashkil qilgan. Bunga, dastlabki sifat to‘garaklarini Yaponiya korporatsiyalari tomonidan tatbiq etilganidan ham anglash mumkin. Sifat menejmentini rivojlanish tarixini sifatning besh yulduzi sifatida ko‘riladigan beshta bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin [1].

Birinchi bosqich – Teylor tizimi. Teylor ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligini oshirish va xodimlarni samarali boshqaruvini tashkil etishda ishlab chiqarish korxonalarini uchun amaliy menejmentning natijalarini ko‘rsatgan daho mutaxassis hisoblanadi. Sifat menejmenti sohasida ham Teylor tomonidan amalga oshirilgan amaliy tadbirlar qadrlanadi va sifatning dastlabki bosqich sifatida tan olingan. Sifat boshqaruvida Teylor tizimi boshqaruvga tizimli yondashuvning boshlang‘ich vazifalariga mos tushadi (1905 yil). Tashkiliy jihatdan u injener-mutaxassislar tomonidan ishlab chiqarish texnik normalarni o‘rnatishni nazarda tutgan, ishchilar esa faqatgina ularni bajarishgan. Bu tizim detallar (buyumlar) sifatiga quyi va yuqori chegaralarni belgilash bilan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan talabni qo‘ygan hamda sifatni yuqori va quyi chegaraga moslashtirish uchun etalonlarni kiritgan.



1-rasm. Sifatning besh yulduzi [2]

Teylor tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta‘minlash uchun sifat sohasidagi dastlabki professionalar – inspektorlar kiritilgan. Motivatsiya tizimi brak va yaroqsizlik uchun jarima, shuningdek haydalanishni nazarda tutgan. O‘qitish tizimi professional o‘qitishga o‘lchov va nazorat jihozlari bilan ishlashni o‘rganishga qaratilgan.

Bu davrda Yevropada Filip Krosbi Germaniyada ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan «nol defekt» dasturini ishlab chiqdi va amaliyotga tatbiq etildi. Krosbi e‘tiborni korxonani boshqarish sohasidagi masalalarga qaratdi va asosan «nol defekt»ga erishishga yo‘naltirilgan fikrlash va sifat tushunchasini anglab yetgan tadbirkorlik madaniyatini singdirishni taklif qildi. Bu bosqichda vakolat, javobgarlik, shuningdek sifat sohasida nafaqat sifat xizmati mutaxassislarini butun korxonaga boshqaruvida hamkorlikni o‘rnatuvchi hujjatlashtirilgan sifat tizimlari paydo bo‘ldi.

Yaponiya va janubiy Koreyada ishchilarni bir necha haftadan to bir oygacha o‘qitishda, shu jumladan mustaqil o‘rganishdan ham foydalangan holda, xodimga e‘tibor ko‘proq ajratila boshlandi. Albatta TQCni tatbiq etilishi va asosiy tamoyillarini rivojlantirish TQC ning asosiy g‘oyalari AQSH va Yevropa davlatlarida ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramay, bir xilda amalga oshmagan. Yaponiyada bu soha ancha ilgari ketdi. Iste‘molchi va yetkazib beruvchilarning o‘zaro munosabati sifatni sertifikatsiyalash tizimiga, ayniqsa ISO 9000 standartlariga katta ta‘sirini ko‘rsatdi. Ma‘lumki, ISO dunyoda eng mashhur va eng qo‘p foydalanilgan xalqaro standart hisoblanadi. ISO standartlari diapazoni samarali sifat menejmenti tizimini tashkil etish va sertifikatlash uchun mukammal

boshqaruv tizimini ishlab chiqadi.

Iste'molchi va yetkazib beruvchilarning o'zaro munosabati sifatni sertifikatlash tizimiga, ayniqsa ISO 9000 standartlariga katta ta'sirini ko'rsatdi. Xalqaro sifat tizimi maqsadli ravishda 9000 seriyali ISO standartlariga muvofiq shakllandi.

Sifat tizimi maqsadli ravishda 9000 seriyali ISO standartlariga asosan qurildi, ya'ni iste'molchi tarafidan talab qilingan mahsulot sifatini ta'minlash, va unga korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirishga imkoniyati yetarli ekanligini isbotlash hisoblanadi. Biroq ISO 9000 seriyali standartlarida iqtisodiy samaradorlik masalalari biroz oqsab qolgan, o'z vaqtida yetkazish qoidalari bo'lmagan. Ushbu standartlar tizimi barcha masalalarni va vazifalarni qamrab ololmaganligiga qaramasdan uning bozor mexanizmidagi o'rni va mavqeyi oshib bormoqda.

ISO 14000 seriyali standartlar asosida sifat tizimini sertifikatlashtirish ISO 9000 seriyali standartlar asosidagi sertifikatlashtirish kabi mashhur bo'ldi. Sifatga insoniy ta'sirlarning o'rni ortdi, o'z xodimlari ehtiyojlarini qondirish korxonalar rahbarlarining diqqat markazida bo'ldi.

ISO 14000 va QC 9000 seriyali standartlarni tatbiq etish, shuningdek sifatni rag'batlantirish bo'yicha o'z-o'zini baholash modellarini vujudga kelishi sifat tizimini boshqarishning beshinchi bosqichini asosiy erishgan natijalari bo'ldi.

ISO 9000:2005 seriyali standartlar haqida gap ketganda uning uch turi farqlanadi: ISO 9000:2005 «Quality management systems – Fundamentals and vocabulary», ISO 9001:2008 «Quality management systems – Requirements», ISO 9004:2009 «Managing for the sustained success of an organization — A Quality management approach».

ISO 9001:2008 (O'zDSt ISO 9001:2009) standartlarini korxonalar joriy etish afzalliklari quyidagilardan iborat: davlat va hududiy buyurtmalar olishdagi ustuvorlik; nufuzli tenderlarda qatnashish; sifat sohasida samarali boshqaruv va uni yaxshilash; jarayon masalalari bo'yicha bilim, ko'nikmalarni yaxshilash; xodimda javobgarlik darajasi va sifat prinsiplariga amal qilish darajasini oshirish; xodimlarni samarali tanlovi; reklama maqsadlarida standartni qo'llash; ishlab chiqarish muammolari yechimini soddalashtirish; nomuvofiq mahsulot va ishlab chiqarish chiqindilari hajmini pasaytirish; mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatiga erishish, samarali kuzatuvchanlikni ta'minlash; ishlab chiqarish samaradorligini oshirish; iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash; iste'molchilarning qoniqish darajasini oshirish; amaldagi iste'molchilarni ushlab turish; bozor ulushini kengaytirish; korxonalar mavqeyini oshirish.

Klassik va zamonaviy sifat menejmentining o'zaro farqlanishini ham ko'rsatib bermoqda. Bu bosqichni quyidagilarda ajratib ko'rsatish mumkin:

Korxonalar ishchilarni ishga kelib ketishidan boshlab, mahsulotlarning statistik kuzatuvlarini ham raqamli texnologiyalar, bulutli tizimlar orqali boshqara oladilar. Bu holat, mexanizatsiyalashgan texnologiyalardan sanoat tarmoqlarini butunlay voz kechib, to'la avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarga o'tganligidan dalolat beradi.

Sanoat tarmog'iga smart zavod, sanoat-4.0 tushunchalarining kirib kelishi natijasida ishlab chiqarish jarayoniga bo'lgan yondashuv ham mutlaq o'zgardi. Investorlar ham o'z investitsiyalarini yuqori darajada innovatsiyalashgan elita korxonalariga kiritishni afzal ko'rmoqdalar. Raqamlashmagan yoki kam darajada raqamlashgan korxonalar investorlar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Korxonalar to'g'ridan-to'g'ri individual muloqotga kirishishlari, ulardan o'rtada hech qanday vositachilarsiz buyurtmalar olishi mumkin.

Aqlli texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishni brak va defektlardan deyarli 100 foiz tozaladilar. Chunki, yangi texnologiyalar natijasida ishlab chiqarishda hech qanday brak va defekt qayd etilmaydi.

Sifat menejmentini rivojlanishining mazkur bosqichida ishlab chiqarish korxonalari uchun ISO standartlarining o'rni beqiyos ortib ketdi. ISO yildan-yilga o'z standartlarini rivojlantirib qolmay, yangi standartlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olmoqda.

Tarmoqlar va sohalar uchun standartlar ishlab chiqarishda ISO ni 60 dan ortiq mamlakatlarda kotibiyatlari mavjud.

ISOga a‘zo mamlakatlarning xalqaro standartlashtirishga qo‘shgan hissasi [3]

№	ISOga a‘zo mamlakatlar	Texnik va kichik qo‘mita darajasidagi faol kotibiyatlar soni		Ishchi guruhlar tomonidan belgilangan darajada o‘tkazilgan anjumanlar soni	
		2023 yil	2024 yil	2023 yil	2024 yil
1.	Argentina	1	1	3	5
2.	Avstraliya	25	23	47	56
3.	Avstriya	5	5	16	17
4.	Belorussiya			1	1
5.	Belgiya	1	1	25	26
6.	Braziliya	5	5	13	15
7.	Kanada	15	15	100	96
8.	Xitoy	77	79	160	199
9.	Kolumbiya	2	2		2
10.	Chexiya Respublikasi			2	3
11.	Daniya	3	3	26	21
12.	Misr			2	3
13.	Finlyandiya	3	3	9	10
14.	Fransiya	73	76	201	196
15.	Germaniya	135	130	388	391
16.	Gana	1	1		
17.	Gretsiya			1	1
18.	Hindiston	10	10	13	14
19.	Indoneziya			1	1
20.	Eron Islom respublikasi	5	5	16	17
21.	Irlandiya			4	6
22.	Isroil	4	4	10	13
23.	Italiya	20	20	56	48
24.	Yamayka	1	1	2	1
25.	Yaponiya	76	75	210	229
26.	Keniya	1	1	1	2
27.	Koreya Respublikasi	21	20	110	112
28.	Lyuksemburg			3	3
29.	Malayziya	4	4	9	8
30.	Meksika	1	1	1	1
31.	Gollandiya	14	14	68	56
32.	Yangi Zenlandiya			6	5
33.	Norvegiya	9	9	27	31

Ushbu mamlakatlarda ISO tashkiloti tomonidan vakolat berilgan kotibiyatlar hamda ishchi guruhlar faoliyat yuritadi. Texnik va kichik qo‘mita darajasidagi faol kotibiyatlar ISO qo‘ygan talablarga muvofiq ish jarayonlarini olib boradi hamda hisobot beradi.

O‘zbekistonda ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019 yil 15 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-4419-sonli Qarori standartlashtirish sohasida muhim ahamiyat kasb etdi [4]. Qarorga muvofiq «O‘zstandart» agentligining hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari faoliyati tugatilib,

xalqaro tashkilotlarning ISO, IYeC, UNYeCYe, EN, CODYeX STAN standartlari, talab va me’yorlariga muvofiq oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, elektrotexnika, yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish, polimer va kimyo sanoati mahsulotlari hamda yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sinovlarini to‘liq amalga oshiradigan zamonaviy sinov va nazorat laboratoriyalaridan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Малахова, Ю. Г. Управление качеством: учеб. пособие / Ю. Г. Малахова, Е. А. Жирнова, Н. В. Захарова; Сиб. гос. аэрокосмич. ун-т. – Красноярск, 2014. – 168 с. 12 – 20 б.
2. Ребрин Ю.И. Управление качеством: Учебное пособие. Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2004. 174 с. 18 б.
3. <https://www.iso.org/> - International Organization for Standardization ISO расмий сайти
4. <https://lex.uz/docs/4476578>